

Uzbekistan Airways Kiyevga parvozlar sonini oshiradi

2021 26 Oktabr

«Uzbekistan Airways» AJ 2021-yil 3-noyabrdan boshlab har chorshanba kunlari Kiyevga aviaqatnovlar sonini oshiradi. Noyabr oyining boshidan aviaparvozlar haftasiga ikki marotaba — chorshanba va yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

Mazkur yoʻnalish boʻyicha aviachiptalar narxi bir tomonga 2 203 229 soʻmdan (bagajsiz) va 2 539 315 soʻmdan (bagaj bilan), shuningdek, borish va qaytish boʻyicha aviachiptalar 4 149 045 soʻmdan (bagajsiz) va 4 771 427 soʻmdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Eslatib oʻtamiz, aviakompaniyaning rasmiy sayti orqali aviachipta xarid qilib olayotganda 3 foizli chegirma taqdim etiladi

Telegram: t.me/uzbekistanairways